

**SHAXSNING MA'NAVİY-AXLOQIY FAZILATINI YUKSALTIRISHDA YANGICHA YONDASHUVLAR****Otokulov A.S. -***O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti katta o'qituvchisi*

Bugungi kunda bizning mamlakatimizda insonlar farovon yashaydigan ma'naviyatli jamiyat barpo etishimiz uchun qat'iyat va mas'uliyat bilan yondoshishimizni hayotning o'zi talab etmoqda.

Ayni paytda bizning jamiyatimiz erishilgan yutuqlarimizga maxliyo bo'lmasdan, xotirjamlikka berilmasdan, erishayotgan muvaffaqiyatlarga tanqidiy nazar bilan qarash lozim bo'ladi, shunda oldimizda turgan ma'naviyat bo'yicha qilishimiz kerak bo'lgan jamiyatimizning farovon hayotini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan maqsad va bir qator dolzarb vazifalarimiz borligini hayotning o'zi yaqqol ko'rsatib beradi.

Tarixning barcha davrlarida millatning yetuk vakillari tomonidan ma'naviy sohalarni yanada takomillashtirish yo'lida amaliy harakatlar amalga oshirilgan.

San'atimiz va adabiyotimiz durdonalari, xalq og'zaki ijodi, urf-odatlar, axloqiy, badiiy, ilmiy, diniy merosi milliy qadriyatlarimizning asoslardir. Ular ajdodlardan-avlodlarga o'tib, avaylab-asrab kelinmoqda. Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz va boshqa shaharlardagi me'morchilik yodgorliklari biz uchun qadrl, muqaddas bo'lib, ma'naviy boyliklarimizning bir qismi hisoblanadi.

Buyuk ajdodlarimiz asrlar davomida xalqimizni ezgu g'oyalari bilan millatni turli tahdidlardan himoya qilib, o'ziga xos ma'naviyatiga ega bo'ldi.

Jamiyat o'zining madaniyati, ijtimoiy muhiti, insoniy fazilatlarida namoyon bo'ladi. Forobiy yozganidek, faqat axloqiy qadriyatlar, adolat, halollik, barqarorlik, xayr-ehson, ezgulik jamiyat ruhini yuksaltiradi. Ijtimoiy muhitdagi taraqqiyot ma'naviy rivojlanishdan boshlanadi. Ma'naviy kamolotning asosi – tarix, Vatan, kelajak avlod oldidagi mas'uliyatimizni his qilishdir.

Agar jamiyatning tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi - ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya'ni, bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy kadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyatga tayanamiz[1].

Insonning ongi va ruhiyati bilan chambarchas bog'langan ma'naviyat, ma'rifat, madaniyat degan tushunchalar har bir jamiyat a'zosi uchun muhim hisoblanishi, jamiyat, millat va xalq farovonligiga erishish yo'lida alohida o'rin tutishi lozim.

Bolalar va o'smirlarning ma'naviy-axloqiy jihatdan sust rivojlanganligi va ulardagi o'ziga xos xususiyatlar (o'zgaruvchanlik, qo'zg'aluvchanlik, beqarorlik, hissiyotga beriluvchanlik, tobelik, jur'atsizlik va boshqalar) deviant xulqning (jamiyatda qabul qilingan normalar va qoidalarga muvofiq kelmaydigan ulardan og'ishgan (farqli) xulq-atvorga ega bo'lgan shaxs) kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Shaxsning ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamolligi esa ijtimoiy turmushda vujudga kelgan turli xil nizoli vaziyatlardan chiqib ketishiga yordam beradi.

Hozirgi vaqtda insonlarning ma'naviy-axloqiy jihatdan yuksalishiga alohida e'tibor berilmoqda. Bu yo'lda davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik, armiya bilan xalq birdamligini yanada mustahkamlash alohida o'rin egallaydi[2].

Shaxsiy tarkibda ma'naviy-axloqiy va harbiy-kasbiy sifatlarni shakllantirish hamda mustahkamlash, shuningdek, insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan fazilatlariga ega bo'lishini ta'minlash maqsadida tizimli ravishda ma'naviy tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shaxs bilan olib boriladigan ma'naviy tarbiya jarayonida Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy barqarorlik, mehr-oqibat, mas'uliyat, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnasevarlik[3] kabi ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirish ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Ma'naviy-axloqiy fazilatlarning eng muhimi Vatanga sadoqatdir. Vatanning ozodligi va obodligi, uning sarhadlari daxlsizligi va mustaqilligini himoya qilish yo'lida fidoyilik bilan yashash,

ona xalqimizning sharafini himoya qilish, uning baxtu saodati uchun kuch-g'ayrati, bilim va tajribasini baxsh etish – eng muqaddas va olijanob burchlardan biri hisoblanadi.

Vatanparvarlik serqirra tushuncha bo'lib, u tarixiy, ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy taraqqiyot jarayonida doimo takomillashib, yangicha ma'no-mazmun bilan boyib boradi. Vatan manfaatlari, qadr-qimmat, istiqboli va uning ravnaqiga bo'lgan muhabbat qancha chuqur anglansa, Vatanparvarlik tuyg'usi shuncha yuksak bo'ladi.

Turli tarixiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy taraqqiyot bosqichlarida Vatanparvarlik yangi mazmun kasb etib boradi. Haqiqiy Vatanparvarlik – Vatanga, ona zaminga, o'z xalqiga chuqur muhabbat bilan yashash, uning taraqqiyoti va manfaatlari yo'lida astoydil mehnat qilish, zarurat tug'ilganda esa uni himoya qilish yo'lida jonini ham ayamalikni anglatadi.

Har bir sohada Vatanimiz qo'lga kiritayotgan muvaffaqiyatlardan quvonish, og'ir damlarda uning taqdiriga befarq qolmaslik, yurtimiz bilan faxrlanish, uning har bir qarich yeri, har bir g'ishti va giyohiga, qadimiy hamda zamonaviy obidalariga, ilm-fan va san'atdagi yutuqlariga, moddiy va ma'naviy boyliklariga hurmat va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish – bularning barchasi Vatanparvarlikning mazmunini tashkil etadi. Hozirgi kunda yoshlarda Vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish va ularni Vatanga muhabbat hamda sadoqat ruhida tarbiyalash ulkan ahamiyatga ega. Inson o'z yurtini qanday bo'lsa, shundayligicha sevishi, uning taraqqiyoti uchun barcha imkoniyatlarini safarbar etishi lozim.

Shaxs, ijtimoiy guruh, millat va jamiyatni zararli g'oyaviy ta'sirlardan himoya qilishga xizmat qiladigan g'oyaviy-nazariy qarashlar va qadriyatlar tizimi muhim ahamiyatga ega. Inson organizmi turli kasalliklarga qarshi immunitetga ega bo'lgani kabi, shaxs va jamiyat ham mafkuraviy tahdidlardan himoyalaniishi zarur. Bu himoyani ta'minlash uchun mafkuraviy immunitetni shakllantirish ustuvor vazifalardan biridir.

Mafkuraviy immunitet tizimining eng asosiy va birinchi elementi – bilimdir. U insonning voqelikni to'g'ri va xolis baholashiga, ma'naviyatini boyitishga va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi kerak. Bu bilimlar Vatan va millat manfaatlari bilan uzviy bog'liq bo'lishi shart. Mafkuraviy immunitetning yana bir muhim elementi – qadriyatlar tizimidir. Chuqur va ob'ektiv bilimlar asosida shakllangan qadriyatlar inson tafakkurini mustahkamlaydi va uni yot g'oyalar ta'siridan himoya qiladi.

Biroq bilim va qadriyatlar tizimi mavjudligining o'zi yetarli emas. Mafkuraviy immunitetni shakllantirish uchun uchinchi muhim omil – ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy-ma'rifiy sohalaridagi aniq maqsadlar tizimi zarur. Agar bu maqsadlar tizimi mavjud bo'lmasa, shaxs, millat yoki jamiyat turli mafkuraviy tazyiqlarga duch kelishi muqarrar[4].

Bugungi kunda zimmasiga mas'uliyat olishdan qochmaydigan kishilar ishlaydigan davr. Barcha narsani bir inson boshqarishi qiyin, hamma narsaga boshliq javob beradi, deb mas'uliyat olishdan qo'rqib o'tirish mumkin bo'lgan shaxslar ham yo'q emas. Boshqaruv tizimining barcha bo'g'inlariga mas'uliyat teng taqsimlanishi kerak. Jamiyatda shunday insonlar borki, kuzatuvchi maqomiday tuyuladi. Jamiyatda bahona qilib, arzon obro' orttirib qolish payida bo'lish yomon illatlar ham mavjud, buni hayotiy tajribaning o'zi tasdiqlab turibdi.

Har bir inson lavozimidan qat'iy nazar va'da bergan bo'lsa, va'dasini bajarishi, agar zaiflik qilsa, o'z o'rnini bo'shatishi kerak. Bitta zaif mansabdor shaxs tufayli minglab odam zarar ko'rishi mumkin. Shuni to'g'ri tushunishimiz kerak. Hamma joyda o'z mas'uliyatini sezmagan, insonlarning boshini qovushtirolmagan shaxslar xayotida biror amaliy ish qilmagan inson aql o'rgatishi bilan jamiyatga zarar yetkazishi mumkin.

Jamiyat adolatsizlikka chidamaydi, buni unutish mansabdor shaxsni salbiy tomonlari desak, agar adashmagan bo'lamiz. O'z qadrini bilgan inson maqtovga zoriqmaydi, mas'uliyatli burchni og'ishmay, halol ado etish uchun juda katta aql-idrok va fahm-farosat kerak bo'ladi.

Inson o'z burchini anglagani sari uning zimmasida mas'uliyat hissi ortib boradi. Qachonki inson oilasi oldidagi burchni anglab yesa, u jamiyat oldida mas'ulligini tushunadi. Qachon inson jamiyat oldidagi burchini anglasa, unda shaxsiy daxldorlik hissi paydo bo'ladi[5].

Shaxsning erkinlik va ijtimoiy mas'uliyatga ongli munosabatini shakllantirishda yana bir muhim omil bu ijtimoiy muhitdir. Ijtimoiy muhitni qay darajada shakllanganligiga qarab yoshlarda

mas'uliyat tuyg'usi qaror topadi va aksincha. Ma'lumki, har bir shaxs o'z atrofida kishilarning ma'naviy madadini sezib tursagina uning qobiliyati va insoniy hususiyatlarida o'sish, rivojlanish, o'zlikni anglash sodir bo'ladi. Bu jihatdan ijtimoiy tarbiyani amalga oshirishda ijtimoiy muhitning roli ayniqsa kattadir[6].

Shaxslarning ta'lim-tarbiya jarayonida yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish ustuvor ahamiyatga ega. Ular Vatanparvarlik, burchga sadoqat, mas'uliyat, milliy g'urur va jangovar ruhni mustahkamlashi lozim. Bu tuyg'ular yoshlarni Vatan himoyasi yo'lida o'zini ayamaydigan, jonini ham fido qilishga tayyor insonlar etib shakllantiradi.

Ma'naviy-axloqiy fazilatlar insonni yuksak ma'naviyat sari yetaklaydi, uning ichki va tashqi olamini shakllantiradi hamda jamiyatda o'zaro munosabatlarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Ushbu fazilatlar umuminsoniy qadriyatlardan kelib chiqadi. Ular insonning dunyoqarashi, g'oyasi, fikri va tasavvurini boyitib, uni axloqiy jihatdan yuksaltirib, sabr, kechirimlilik, bir-biriga yordam berish, sodiqlik, adolat va halollik kabi insoniy xislatlarni rivojlantiradi. Shu orqali insonlarning ma'naviy-axloqiy sifatleri barqaror rivojlanadi.

Ma'naviy-axloqiy fazilatlar har bir shaxsni mas'uliyatli bo'lishga undaydi. Bu esa o'z-o'zini tarbiyalash, boshqalarni hurmat qilish, oqilona qarorlar qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi.

Yuksak axloqiy qadriyatlar, mas'uliyatlik, Vatanparvarlik, irodalilik, mafkuraviy barqarorlik va ijodiy (kreativ) fikrlash barcha fuqarolar uchun ham juda muhimdir. Ushbu fazilatlar ularning kundalik faoliyatini samarali boshqarishda muhim o'rin tutadi.

Insonlarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish maqsadida ta'lim-tarbiya jarayonlarini yanada takomillashtirish zarur. Bu ularning yuksak axloqiy tamoyillarga amal qilishini ta'minlab, ma'naviy sifatlarining samaradorligini oshiradi.

#### ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning poydevoridir. “Tasvir” nashriyot uyi Toshkent – 2021. 4-b.
2. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, O'zbekiston Qurolli Kuchlar Akademiyasi. “Globalashuv sharoitida vatanparvarlik tarbiyasining ma'naviy-ma'rifiy texnologiyalari” Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallar to'plami. 2019 yil, yanvar. 34-b.
3. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi. 10-b.
4. O.Salimov, X.Sultonov, A.Abduvaxitov, D.Kenjaev, A.A'zamov, M.Hojimatov, M.Quronov, Q.Nazarov (tuzuvchi va mas'ul muharrir) Ma'naviyat asosiy tushunchalar lug'ati “O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, Toshkent 2021. 306-b.
5. U. Alimov. Oilada farzand tarbiyasi “Movarounnahr”. nashriyoti, Toshkent 2019. 36-b.
6. O'zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash borasida rahbar kadrlar oldida turgan vazifalar: mavjud holat, muammolar va echimlar: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi. Toshkent, 2019. - 15 b.

#### REZYUME:

Mazkur maqolada jamiyat o'zining madaniyati, ijtimoiy muhiti, insoniy fazilatlarida namoyon bo'lishi, insonning ongi va ruhiyati bilan chambarchas bog'langan ma'naviyat, ma'rifat, madaniyat tushunchalari har bir jamiyat a'zosi uchun muhim hisoblanishi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** ma'naviyat, vatanparvarlik, Vatanga sadoqat, mafkura, immunitet, qadriyat, ta'lim-tarbiya, fazilat, axloq, tarix.

#### РЕЗИОМЕ:

В данной статье подчеркивается важность понятий духовности, просвещения и культуры, которые тесно связаны с человеческим разумом и психикой и считаются важными для каждого члена общества.

**Ключевые слова:** духовность, патриотизм, преданность Родине, идеология, иммунитет, ценность, образование, воспитание, добродетель, мораль, история.

**RESUME:**

This article highlights the importance of the concepts of spirituality, enlightenment, and culture, which are closely linked to the human mind and psyche, and are considered important for every member of society.

**Keywords:** spirituality, patriotism, loyalty to the Motherland, ideology, immunity, values, education and upbringing, virtue, ethics, history.